



UO‘K: 94(575)+37(091)+316.7

## JADIDCHILIKDA TARIX VA TA'LIM MASALALARI

## ВОПРОСЫ ИСТОРИИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ДЖАДИДИЗМЕ

## ISSUES OF HISTORY AND EDUCATION IN JADIDISM

Abdusalomov Asadbek Abdulhakim o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti magistranti

## Annotatsiya

Ushbu maqolada jadidlarning mamlakatda ijtimoiy, madaniy – ma'rifiy taraqqiyotning negizini xalqning o'tmishidan izlashga harakat qilganliklarini, o'tmishda ota – bobolarimiz yaratgan yangiliklar, o'z qarashlarini ma'lum bir izga solishga intilganliklarini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, jadidlar taraqqiyotga erishmoq uchun ota – bobolardan qolgan ilm sirlarini, hayotiy tajribalarni o'zlashtirish, shu tajribalarga suyangan holda bugungi zamonaviy o'zgarishlarni har bir musulmon kishisi o'z yurtiga joriy etmoq kerakligi tahlil qilinadi.

## Аннотация

В данной статье мы видим, что джадиды пытались найти основу социального, культурного и образовательного развития страны в прошлом народа, стремились проследить собственные взгляды и нововведения, созданные нашими предками в прошлом. Кроме того, анализируется, что для достижения прогресса джадидами каждый мусульманин должен овладеть секретами знаний и жизненным опытом, оставленными предками, и на основе этого опыта осуществлять сегодняшние современные изменения в своей стране.

## Abstract

In this article, we can see that the Jadids tried to find the basis for the social, cultural and educational development of the country in the past of the people, and sought to trace the innovations created by our ancestors in the past, and their own views in a certain way. In addition, the Jadids analyzed that in order to achieve progress, every Muslim should master the secrets of science and life experiences left by their ancestors, and based on these experiences, introduce today's modern changes to their country.

**Kalit so'zlar:** Jadid, milliy, tarix, talim, tarix talimi, maktab, milliy ong, milliy g'urur, or – nomus, millat, milliylik, mamlakat, milliy taraqqiyot, o'zlik, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, manqurt.

**Ключевые слова:** Новый, национальный, история, образование, историческое образование, школа, национальное сознание, национальная гордость, честь, нация, национальность, страна, национальное развитие, идентичность, осознание национальной идентичности, историческая память, манкурт.

**Key words:** New, national, history, education, history education, school, national consciousness, national pride, honor, nation, nationality, country, national development, identity, awareness of national identity, historical memory, mankurt.

## KIRISH

Jadidlar an'anaviy eski usul maktablar o'rniga yangi usul (usuli jadid) maktablarini ochib, o'quv dasturlariga matematika, geografiya, tarix kabi dunyoviy fanlarni kiritdilar. Shuningdek, ular matbuot, san'at va adabiyot orqali xalqni savodli qilishga intildilar. Jadidlar tarix faniga alohida etibor berib, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy mamlakat taraqqiyoti, o'zlikni anglashda, komil inson bo'lib yetishishda, jamiyatni boshqarishda tarix fanining beqiyos ekanligini takidlaydi. Faqat vatan tarixi emas, Yevropa va jahon mamlakatlari tarixini ham o'rganish zarur, busiz hech kim ma'rifatli inson bo'la olmaydi, degan fikrni ilgari suradi.

“Tarix ko'p ahamiyatli va foydali bir narsadir. Tarixning foydalaridan bazisi ushbu dirki, bir millatning na tariqada, qaysi yo'l ila taraqqiy etganini o'qib, ibrat olmoq yoki bir millatning na sabablardan tanazzul etib, oxiri munqariz bo'lib ketganini qo'yib mundan ham etmaak mumkindir-deb yozadi M. Behbudiy o'zining “Turkiston tarixi” maqolasida. Uning fikricha, tarixni bilmay turib hech kim komil va adolatli inson bo'la olmaydi. Haqiqatdan ham tarix– bu millat ko'zgusi, uni bilmagan inson o'zligidan va kelajagidan ayrilishi muqarrardir. Zero, “Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy. Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergan

yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir" [1].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jadidlar tarixni o'rganish asnosida tarix bilan bog'liq bir qator asarlar ham yaratishib bu fanning rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. "Taraqqiy va tanqid", "Tarixi Muhammadiy", "Islomning muxtasar tarixi", "Najot yo'li" (A. Fitrat), "Tarixi madaniyat", "Tarixi Farg'ona", "Mezon ul zamon" (Ibrat), "Tarix va jug'rofiya", "Buxoro", "Tarixi Islom" "Mirzo Ulug'bek", "Xayrul umumri afsatuxo" ("Har bir ishning o'rta miyonasi durust") (M. Behbudiy), "Buxor inqilobi uchun materiallar" (S. Ayniy) shular jumlasidandir.

Mahmudxo'ja Behbudiy mamlakat taraqqiyoti, o'zlikni anglashda, komil inson bo'lib yetishishda, jamiyatni boshqarishda tarix fanining beqiyos ekanligini takidlaydi. Faqat vatan tarixi emas, Yevropa va jahon mamlakatlari tarixini ham o'rganish zarur, busiz hech kim ma'rifatli inson bo'la olmaydi, degan fikrni ilgari suradi. Uning fikricha, tarixni bilmay turib hech kim komil va adolatli inson bo'la olmaydi. "Dunyoga ishonmoq uchun, komil va odil bo'lmoq uchun tarixni o'qimoq va bilmoq kerak, dini islomning asl payg'ambar va sahobalarining islomiyat va ummat uchun jafo chekkan mehnatlarini bilmoq uchun tarix o'qimoq kerak. Past qolgan va taraqqiy qilgan xalqlarni, jahongir bo'lgan davlat yo nopadid bo'lgan hukumatlarni bilmoq uchun tarix o'qimoq kerak, musulmonlik qanday ko'paydi va taraqqiy etdi va alon na uchun musulmonlar tanazzul etdilar? Va iloji xuddoriy va taraqqiy nadir? Buni bilmoq uchun tarix o'qimoq kerak. Xulosa, dini dunyodan boxabar bo'lmoqni xohlaydigan har kim uchun tarix o'qimoq kerak. Chunki har nima va shuning asli va nasli tarixdan bilinur" M. Behbudiy tarix ilmi haqidagi fikrlarini davom ettirib, "Moziy – istiqbolning tarozisidir"[2,14]desa, tarix ilmiga ijodiy yondoshgan A. Fitrat tarixni ikki qismga: muqaddas tarix, ya'ni din, payg'ambarlar va aziz avliyolar tarixiga hamda jamiyat tarixiga ajratib tahlil etadi va u tarixga o'ziga xos baho berib, "saboq beruvchi va o'qituvchi fan" deb ataydi A. Fitrat tarix haqida: "Tarix – millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sababini o'rganadurg'on ilmdir,"- degan edi. Nushirovan Yovushev: "Tarix millatning joni – ruhi va ma'naviy hayotidir", "Tarix o'qimog'onlikdan kelgan zararlar sanabgina bitaturlik narsa emas: o'z milliy tarixini bilmagan millat o'z otasini bilmagan "u" dan tug'ilgan bir bolaga o'xshaydir", degan edi.

Tarix sohasida qalam tebratgan Isxoqxon Ibrat rus va Sharq sharqshunoslari asarlari bilan tanishib chiqdi, shuningdek, tarixiy asarlar yozishda G'arb sharqshunoslarining tarixiy asar yozish metodikasidan foydalandi. Masalan, "Tarixi Farg'ona"[3,8] asarida shunday g'oyani ko'rishimiz mumkin, unda Buxoro amiri Nasrulloxonning Qo'qonda olib borgan qirg'inbarot urushini qoralaydi va o'z navbatida Xudoyorxonning ham qipchoq qirg'ini bilan shug'ullanganligi uning xatosi deb hisoblaydi. Shuningdek, Ibrat "Tarixi taboqat ul - tohiriy", "Tarixi Tabariy", "Tarixi shohi Jarir" va boshqa shu kabi tarixiy asarlardan foydalanib, Farg'ona tarixini yoritishga harakat qiladi, Farg'onaning Qubo, Aysi kabi qadimgi shaharlari bilan bog'liq ma'lumotlar berib o'tadi. Jadidlar darslik va qo'llanmalar, maqolalar yaratdilar, ularda tarix fanining zarurligi haqida o'z qarashlarini bayon etdilar va o'zlari tashkil etgan "usuli jadid" maktablarida fanning o'qitilishi, uning metodikasiga alohida ahamiyat berdilar. Bu borada Munavvar Qori tarix fanini o'qitishda ko'rgazmalilikdan foydalanish usulini taklif etgan bo'lsa, Abdulla Avloniy va Hamza texnik vositalardan foydalanishni, Abdurauf Fitrat va Mahmudxo'ja Behbudiy o'quvchilarda og'zaki nutq usulini rivojlantirishni maqul ko'radilar, hamda tarixni o'qitishning ushbu muhim masalalarini ilmiy jihatdan ishlab chiqdilar.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

XX asr oxiriga kelib xalqimiz jadid mutafakkirlari orzulagan va xatto o'z aziz hayotlarini fido qilgan mustaqillika erishdi. Bu davrda millat o'zligini anglab yetgan, istiqlolni chuqur idrok etgan va uni mustahkamlay oladigan darajada edi. Shu ma'noda usul jadid maktablarining maqsad va mohiyatini o'rganish hozirda istiqlol mafkurasini ishlab chiqishda muhim siyosiy va ma'rifiy ahamiyatga ega. Jadid maktablarining vujudga kelishi bilan an'anaviy o'qitish uslublarini tubdan isloh qilish o'qitishning yangi usullarini ishlab chiqish va shu usullar zamirida darsliklar o'quv qo'llanmalari yaratish jadid pedagogikasining dolzarb masalasiga aylandi. XX asr boshlarida davriy matbuotda yoritila boshlagan tarix fanini o'rganish masalalari XX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlangan demokratik oshkoralik va qayta qurish jadidchilik harakati haqida cheklangan holda bo'lsa ham ba'zi haqiqatlarni aytish imkonini berdi. Shu nuqtai nazardan 1987 yilda O'zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot institutida, 1989 yilda O'zFA va Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida Turkistonda jadidchilik harakatiga bag'ishlangan sobiq ittifoq miqyosida ilmiy anjumanlar o'tkazildi.

## FALSAFA

Ushbu yig'ilishlarda jadidchilik harakatini kompleks – hamma ijtimoiy siyosiy fanlar bo'yicha o'rganish kerakligi ta'kidlandi.

O'zbekiston tarixi muammolariga oid ilk maqolalar e'lon qilina boshlandi. Bu maqolalar mualliflari jadidchilik harakati namoyondalari bo'lib, ular mamlakat rivojlanishining taraqqiyoti o'zlikni anglashda, tarix fanining rolga alohida e'tibor qaratdilar. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatida tarix muammolarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Behbudiy komil inson bo'lib yetishishda, jamiyatni boshqarishda tarix fanining o'rni beqiyosligini ta'kidlaydi.[4,11] U Turkiston tarixi, tarix va jo'g'rofiya, islom tarixi kabi asarlarida faqatgina vatan tarixini emas Yevropa va jahon mamlakatlari tarixini bilish zarurligi haqida so'z yuritadi. Uning «Moziy istiqbolning tarozisidir» degan xitobi tarix tajribasida o'zining haqliligini isbotladi. Behbudiyning tarixiy ilmiy qarashlari O'zbekiston tarixni o'rganish va uni yaratish yo'lida o'ziga xos ilmiy dastur bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda qomusiy aql egasi insonparvar shaxs bo'lgan Behbudiyning tarix fani ahamiyati haqida gapirib o'tgan fikrlarini aytish o'rindir.

Behbudiyning fikricha, jamiyat rivoji va taraqqiyotida jamiyat ongida tarix fani qanday o'rin tutish kerak? Uning bu muammoga bo'lgan munosabati «Tarix va jo'g'rofiya» maqolasida o'z aksini topgan bo'lib, bu tadqiqot jiddiy masalalarni ko'tarib chiqqan asarlardan biri hisoblanadi. Mutaassib islom namoyondalarining qotib qolgan dunyoqarashi hukmronlik qilgan davrda bu fanlar bid'at va gunoh hisoblangan edi. Shunga qarshi Behbudiy o'sha vaziyatda tarix va jo'g'rofiyaning muhimligi va zarurligini diniy aqidaparastlarga qarshi turib, bu ikki fanining jadid maktablarida bugun yoki kecha kashf etilmaganini, balki jamiyat hayotida qadimdan mavjud bo'lib kelganini isbotlaydi.[5;13]

**XULOSA**

Xulosa qilganda, xalqimiz bugungi kunga qadar juda ko'p o'g'ir kunlarni boshidan kechirdi. Ayniqsa, Chor Rossiyasi mustamlakachiligidan mustaqillik kunimizgacha o'tgan kunlarni har bir daqiqasi tahlikali va jabr zulm ostida o'tdi. Ana shunday og'ir va fojeali damlarda xalq bilan birga bo'lgan uning manfaatlarini himoya qilgan fidoiy kishilar orasida jadid taraqqiyparvarlari alohida ajralib turgan. Shu paytga qadar, xalqni ma'rifat orqali uyg'otish, tarbiyalash taraqqiyotga yetaklash maqsadida faol say - harakatlar olib borgan jadidlar 1916- yil qo'zg'oloni misolida xalq qudratini, uning irodasini bu xalqni ozodlikka olib chiqish, xurriyatga erishish uchun qo'llaridan kelganicha harakat qildilar.

Shuningdek, jadidlar hurriyatga erishish uchun xalqni siyosiy jihatdan tarbiyalash va milliy istiqloq uchun kurash yo'lida uyushtirish zaruriyatini ham chuqur anglab yetdilar.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu - tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga yetgan qishloq, shahar, xullaski, Vatanining tarixini bilishni istaydi. Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta, bir kun mana shunday savollarga duch keladi va, aminmanki, to'g'ri xulosalar chiqaradi. Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Takror aytaman, irodali insondir. Kim bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Agar biz o'tmish ajdodlar xotirasini ulug'lasak, Vatan ozodligi, millat ravnaqi yo'lida jon fido qilgan vatandoshlarimizni unutmasak, ularning jasorati va fidoyiligini o'zimiz, farzandlarimiz uchun o'rnak deb bilsak, ibratli ishlarini davom ettirsak, keyingi avlodlar ham ayni shunday yo'l tutadi.[6;3] Shu bois, ortimizdan kelayotgan yosh avlodni har jihatdan komil insonlar qilib tarbiyalashda, ma'naviy-ma'rifiy ishimizda, olib borayotgan targ'ibot-tashviqot tadbirlarida va, ayniqsa, safimizga qo'shilayotgan yoshlar bilan ishlashda, ularning dunyoqarashini, ong-shuurini to'g'ri shakllantirishda tarixiy xotiradan, moziy saboqlaridan, alloma ajdodlarimizning meros va o'g'itlaridan, donishmandlarimizning asarlarida bayon qilingan ko'rsatmalardan unumli foydalanishimiz zarur.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

- 1.Mirziyoyev.Sh.M Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro-konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidan. 2023 yil 6-mart. <https://daryo.uz/>
2. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi B.Qosimov. (Tuzatilgan va to'ldirilgan 3-nashr). - Toshkent: Ma'naviyat, 2006.
3. Isxoqxon To'ra Ibrat .Tarixi Farg'ona. -Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
- 4.Abdurashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
5. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna jurnali, 1914 yil, 41-son.
6. Karimov I.A.Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, 1998.
7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.